

**TEZKOR-QIDIRUV FAOLIYATI SOHASINI TARTIBGA SOLUVCHI NORMATIV-
HUQUQIY BAZADAGI MUAMMOLI JIHATLAR**

**ПРОБЛЕМНЫЕ АСПЕКТЫ НОРМАТИВНО-ПРАВОВОЙ БАЗЫ,
РЕГУЛИРУЮЩЕЙ ПРИМЕНЕНИЕ ОПЕРАТИВНО-ТЕХНИЧЕСКИХ СРЕДСТВ В
ОПЕРАТИВНО-РОЗЫСКНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ**

**PROBLEMATIC ASPECTS OF THE REGULATORY AND LEGAL FRAMEWORK
GOVERNING THE USE OF OPERATIONAL-TECHNICAL MEANS IN OPERATIONAL
SEARCH ACTIVITY**

Xamidov G'aybulla Saypillaevich

O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti professori

Annotatsiya: *Ushbu maqolada tezkor-qidiruv faoliyati sohasida tezkor-texnik vositalardan foydalanish bilan bog'liq huquqiy mexanizmlarni qayta ko'rib chiqish, huquqiy aniqlik va kafolatni ta'minlovchi aniq va mukammal normalarni ishlab chiqish, texnik vositalar qo'llanilayotgan holatlarda inson huquqlari va erkinliklarini himoya qilishga qaratilgan muammolar o'rganilgan va ularni bartaraf etish chora-tadbirlari yuzasidan takliflar ishlab chiqilgan.*

Kalit so'zlar: *Tezkor-texnik vosita, huquqiy mexanizm, konstitutsiyaviy huquq, shaxs, tezkor xodim, tezkor-qidiruv tadbiri, jinoyat.*

Аннотация: *В данной статье изучены вопросы пересмотра правовых механизмов, связанных с использованием оперативно-технических средств в сфере оперативно-розыскной деятельности, разработки чётких и совершенных норм, обеспечивающих правовую определённость и гарантии, а также проблемы защиты прав и свобод человека в условиях применения технических средств. По результатам исследования разработаны предложения по устранению указанных проблем.*

Ключевые слова: *оперативно-техническое средство, правовой механизм, конституционное право, личность, оперативный сотрудник, оперативно-розыскное мероприятие, преступление.*

Abstract: *This article examines the issues related for revising legal mechanisms associated with the use of operational-technical means in the field of operational search activity, developing clear and comprehensive norms that ensure legal certainty and guarantees, as well as problems aimed at protecting human rights and freedoms in conditions where technical means are applied. Based on the research results, proposals have been developed to eliminate the identified problems.*

Keywords: *operational-technical means, legal mechanism, constitutional law, individual, operative officer, operational search measure, crime.*

Jamiyat va davlat xavfsizligini ta'minlash, fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qilish muammolari bugungi kunda jahon miqyosida dolzarblik kasb etmoqda. Ayniqsa, jinoyatchilikning yangi shakl va uslublari, uning raqamli muhitdagi namoyon bo'lishi huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyatida zamonaviy yondashuv va texnik imkoniyatlardan samarali foydalanishni talab etmoqda.

Tezkor-qidiruv faoliyati doirasida tezkor-texnik vositalardan foydalanish jinoyatlarni fosh etish, dalillar to'plash va ularni tahlil qilishda muhim o'rin tutadi. Raqamli vositalar, audio-video yozuvlar, kuzatuv tizimlari, aloqa ma'lumotlarini qayta ishlash kabi imkoniyatlar jinoyat ishlari yuzasidan isbotlash faoliyatida samaradorlikni oshirishga xizmat qiladi. Ammo bunday texnik vositalarni qo'llash huquqiy va axloqiy jihatdan aniq tartibga solinmagan hollarda shaxsning konstitutsiyaviy huquqlari buzilishiga sabab bo'lishi mumkin.

Tezkor-texnik vositalardan jinoyat-protsessual faoliyat va tezkor-qidiruv tadbirlarida foydalanishning huquqiy jihatlari — huquqshunoslik sohasida dolzarb va rivojlanayotgan yo'nalish hisoblanadi. Mazkur muammoni o'rganish bo'yicha ilmiy tadqiqot izlanishlari nafaqat mustaqil davlatlar hamdo'stligi davlatlarida (keyingi o'rinda - MDH), balki xorijiy mamlakatlarda ham turli nuqtai nazardan o'rganilgan.

O'zbekistonlik huquqshunos olimlar — B.A. Abdurasulov [1], N.J. Tursunov [2], J.J. Abdurahmonov [3], Sh.M. Nazarov [4] va boshqalar — jinoyat-protsessual faoliyatda va A.A.Xamdamiyov [5], V.G.Karimov [6], N.N.Bekmurodov [7], T.E.Masharipov [8] va boshqalar - tezkor-qidiruv faoliyatida tezkor-texnik vositalardan foydalanishning huquqiy asoslari va amaliy jihatlariga oid tadqiqotlar olib borishgan. Ular texnik vositalar bilan ta'minlash, xodimlarning malakasini oshirish va ularning qonuniy foydalanishini ta'minlash masalalariga alohida e'tibor qaratishgan.

Rossiyalik olimlar — T.V. Averyanova [9], N.S. Alekseev [10], V.D. Arsenev [11], O.Ya. Baev [12] va boshqalar — tezkor-texnik vositalarning huquqiy asoslari, ularning jinoyat ishlarini tergov va sud jarayonlarida qo'llanilishi, shuningdek tezkor-qidiruv tadbirlarida tezkor-texnik vositalardan foydalanishning huquqiy jihatlari batafsil tahlil qilganlar.

Xorijiy olimlar ham ushbu sohada o'z hissalarini qo'shganlar. Jumladan, AQShda P.R. Roberts, B.D. Smit va Ye.L. Miller [13] texnik vositalardan foydalanishning huquqiy-amaliy jihatlari, uning jinoyat ishlarini tergovda va sud jarayonlarida qo'llanilishi bo'yicha izlanishlar olib borganlar. Yevropa mamlakatlaridan, xususan Germaniya va Fransiya olimlari — K.Shmidt [14], J.P. Leklerk [15] va boshqalar — tezkor-texnik vositalarning qonunchilik va amaliy jihatlari o'rganganlar, shuningdek inson huquqlari va erkinliklari muhofazasiga alohida e'tibor qaratishgan.

Biroq, yuqoridagi tadqiqotlar ko'pincha ayrim mamlakatlarning milliy huquqiy tizimlariga moslashtirilgan bo'lib, ularning o'zaro integratsiyasi hamda zamonaviy texnik vositalarning tez rivojlanayotgan texnologiyalar bilan uyg'unlashuvi muammolariga yetarlicha e'tibor berilmagan.

Amaliyotda tezkor-qidiruv choralari doirasida olingan ma'lumotlarni jinoyat-protsessual jarayonda dalil sifatida tan olishda qator huquqiy va texnik muammolar

mavjud. Bu, avvalo, ma'lumotlarning shakli va mazmuni, ularning aniqlanish usullari, ishonchliligi hamda protsessual talablarga mosligi bilan bog'liqdir. Qonunchilikdagi aniqsizlik, normalar o'rtasidagi qarama-qarshiliklar va ilg'or texnologiyalarni huquqiy tartibga solishdagi orqada qolish holatlari bu sohani chuqur ilmiy tahlil qilish zarurligini ko'rsatmoqda.

Tezkor-qidiruv faoliyati jinoyatchilikka qarshi kurashning muhim mexanizmlaridan biri sifatida qator huquqiy, axloqiy va texnik talablar asosida amalga oshiriladi. Ayniqsa, bu faoliyatda raqamli va texnik vositalardan foydalanish jarayonida shaxsning konstitutsiyaviy huquqlari va erkinliklarini himoya qilish ustuvor ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, amaldagi qonunchilik tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, mazkur sohani tartibga soluvchi normativ-huquqiy baza qator jiddiy kamchilik va huquqiy bo'shliqlarga ega.

Birinchiidan, O'zbekiston Respublikasi "Tezkor-qidiruv faoliyati to'g'risida"gi qonunda texnik vositalardan foydalanish bo'yicha belgilangan normalar O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, Jinoyat-protsessual kodeksi, "Axborotlashtirish to'g'risida"gi qonun, "Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida"gi qonun hamda fuqarolarning huquq va erkinliklarini ta'minlashga qaratilgan boshqa normativ-huquqiy hujjatlar bilan yetarli darajada muvofiqlashtirilmagan. Bu holat amaliyotda fuqarolarning shaxsiy hayoti daxlsizligi, axborotga bo'lgan huquqi va ma'lumotlar maxfiyligining buzilishiga olib kelishi mumkin.

Ikkinchiidan, mazkur qonunning ayrim moddalarida nomuayyan, umumiy va ikki ma'noli tushunchalar qo'llanilgan. Bunday huquqiy normalarni turlicha talqin qilish imkoni mavjud bo'lib, bu huquqni qo'llovchi organlar faoliyatida turfa xil amaliyotlarning shakllanishiga, huquqiy ishonchsizlik muhitining yuzaga kelishiga olib keladi. Natijada, fuqarolarning o'z konstitutsiyaviy huquqlaridan to'la foydalanishi yo cheklanadi, yoki murakkablashadi.

Uchinchiidan, amaldagi qonun normalari zamonaviy raqamli va texnik vositalarning ilg'or imkoniyatlarini inobatga olmagan. Bunday vositalar orqali shaxsga oid ma'lumotlarni yashirincha to'plash, kuzatish, ularni qayta ishlash va tahlil qilish imkoniyati mavjud. Bunday holatlar shaxsiy hayot daxlsizligi, shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish, muloqot maxfiyligi kabi asosiy konstitutsiyaviy huquqlarning jiddiy ravishda buzilishiga olib kelishi mumkin. Holbuki, Konstitutsiyaga muvofiq, mazkur huquqlarga faqat qonunda belgilangan asoslarda va sud qarori asosida cheklov qo'yilishi mumkin.

Jinoyat-protsessual faoliyat va tezkor-qidiruv tadbirlarida texnik vositalardan samarali foydalanish jarayonida aniqlangan muammolardan biri – texnik vositalar bilan barqaror va sifatli ta'minlash masalasidir. Zamonaviy huquqni muhofaza qiluvchi organlarning vazifalarini to'laqonli amalga oshirishda yuqori texnologiyali texnik jihozlar muhim rol o'ynaydi. Biroq, mazkur vositalarning doimiy va zamonaviy holda taqdim etilishining kafolatlanmasligi, ularning texnik xizmat ko'rsatilishi va modernizatsiyasi bilan bog'liq muammolar sohadagi ish samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Shu bilan birga, texnik vositalardan to'laqonli va qonuniy foydalanishning asosiy shartlaridan biri – kadrlarning malakalari va malakasi oshirilishi hisoblanadi. Huquqni muhofaza qiluvchi organ xodimlari uchun texnik vositalarni ishlatishning murakkabliklari, yangiliklarga tez moslashish, shuningdek, qonunchilik va protsessual talablarga rioya qilish doirasida malakali tayyorgarlik dasturlarining yetishmasligi muammoning o'ziga xos jihatidir.

Shu bois, texnik vositalardan samarali foydalanishni ta'minlash maqsadida quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish zarur:

Texnik vositalarning innovatsion modellari bilan doimiy ta'minlash va ularning barqaror texnik xizmat ko'rsatilishini tashkil etish;

Qonuniy va protsessual asoslardan kelib chiqib, texnik vositalardan foydalanish bo'yicha huquqni muhofaza qilish organlari xodimlarining malakasini muntazam ravishda oshirish;

Xodimlarni texnik vositalardan qonuniy va samarali foydalanishga o'rgatish maqsadida yagona ta'lim dasturlari va metodik materiallar ishlab chiqish;

Amaliyotda texnik vositalarni qo'llashda ro'y berishi mumkin bo'lgan muammolarni hal qilish uchun ilmiy-tadqiqot ishlarini kengaytirish.

Bu masalalarning yechimsizligi jinoyat-protsessual faoliyatning samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatishi bilan birga, texnik vositalardan olingan ma'lumotlarning ishonchliligini pasaytirishi, shuningdek, huquqiy muammolarning kuchayishiga olib kelishi mumkin.

Shuning uchun texnik vositalar bilan ta'minlash hamda xodimlarning ulardan to'g'ri va malakali foydalanishini ta'minlash tezkor-qidiruv va jinoyat-protsessual tizimlarining innovatsion rivojlanishi va uning samaradorligini oshirishda muhim ilmiy va amaliyotga yaqin vazifalardan biridir.

Tezkor-texnik vositalardan foydalanish samaradorligini oshirish yo'nalishlari:

Tezkor-texnik vositalarning texnik jihatdan takomillashtirilishi

Yangi avlod tezkor texnik vositalarni (biometrik qurilmalar, intellektual kameralar, shifrlash texnologiyalari) joriy etish.

Uskunalarining ishonchliligi va barqarorligini oshirish maqsadida doimiy texnik xizmat ko'rsatish va modernizatsiyalash tizimini tashkil etish.

Ma'lumotlarni yig'ish, saqlash va qayta ishlash jarayonlarida zamonaviy sun'iy intellekt va mashinani o'rganish texnologiyalarini qo'llash.

Huquqiy mexanizmlarni takomillashtirish

Tezkor-texnik vositalardan foydalanishdagi huquqiy normalarni aniqlashtirish, ularning tezkor-qidiruv jarayonlari bilan muvofiqligini ta'minlash.

Qonunchilikda tezkor-texnik vositalardan foydalanish tartibini, ularni qo'llash maqsadlari va cheklovlarini aniq belgilash.

Samarali boshqaruv va muvofiqlikni ta'minlash

Tezkor-qidiruv xizmatlarida tezkor-texnik vositalardan foydalanishni muvofiqlashtiruvchi maxsus bo'limlarni tashkil etish.

Ushbu bo'limlar orqali texnik vositalarning samarali faoliyatini nazorat qilish va ularning qonuniy hamda texnik talablarga mosligini ta'minlash.

Tezkor-texnik vositalarni ta'lim tizimida joriy etish va malaka oshirishni tshkil etish:

Ta'lim dasturlarining mukammallashtirilishi

Oliy va o'rta maxsus ta'lim muassasalarida tezkor-texnik vositalardan foydalanish bo'yicha maxsus modullarni, o'quv kurslarini yaratish va joriy etish.

Ushbu kurslarda yangi texnologiyalar, huquqiy asoslar, etika qoidalari va amaliy mashg'ulotlarga alohida e'tibor qaratish.

Amaliyotga yo'naltirilgan o'qitish

Tezkor-qidiruv xodimlari uchun amaliy mashg'ulotlar va stajirovkalarni tashkil etish, ularni ilg'or tashkilotlar bilan hamkorlikda o'tkazish.

Virtual reallik (VR) va sun'iy intellekt asosida trenajerlardan foydalangan holda interaktiv o'quv jarayonlarini tashkil etish.

Malaka oshirish va qayta tayyorlash tizimi

Tezkor-qidiruv xodimlarining malakasini doimiy ravishda oshirish uchun sertifikatlash va qayta tayyorlash dasturlarini joriy etish.

Yangi texnik vositalar va texnologiyalarni joriy etishga mos ravishda ta'lim tizimini doimiy ravishda yangilab borish.

Amaliyot va ta'limni integratsiyalashtirish

Ilmiy-tadqiqot hamkorliklari

Tezkor-qidiruv xizmatlari bilan ta'lim muassasalari o'rtasida hamkorlikni mustahkamlash, talabalar va xodimlar uchun amaliy tadqiqotlar va loyihalarni amalga oshirish.

Ilmiy-tadqiqot institutlari, universitetlar va tezkor-qidiruv xizmatlari o'rtasida malakali ilmiy kengashlar va seminarlar tashkil etish.

Amaliyotdagi yangiliklarni ta'limga joriy etish

Tezkor-qidiruv amaliyotida qo'llanilayotgan yangi usullar va texnologiyalarni ta'lim dasturlariga tezda kiritish.

Xodimlarning amaliyotdagi tajribasini o'quv jarayoniga jalb etish, ularning amaliy tavsiyalarini ta'lim materiallarida aks ettirish.

Malaka va kompetensiyaga asoslangan ta'lim

Tezkor-texnik vositalardan foydalanish bo'yicha aniq kompetensiyalar belgilash va ta'lim dasturlarini shularga muvofiq shakllantirish.

Amaliyotdan kelib chiqqan holda doimiy baholash tizimini joriy etish, unda xodimlarning bilimlari va ko'nikmalari tekshiriladi.

Samaradorlikni oshirish uchun qo'shimcha choralar

Ma'lumotlar almashinuvi va integratsiya

— Tezkor-qidiruv organlari o'rtasida texnik vositalardan olingan ma'lumotlarni tez va xavfsiz almashish imkoniyatlarini kengaytirish.

Ta'lim va amaliyotni birlashtiruvchi platforma yaratish

— Onlayn-resurslar, mobil ilovalar va veb-platformalar orqali tezkor-qidiruv xodimlari uchun o'quv va amaliy ma'lumotlarni doimiy yangilab borish.

Samarali motivatsiya va rag'batlantirish tizimlari

— Tezkor-texnik vositalardan samarali foydalanishga qaratilgan malaka oshirish va ilg'or faoliyat uchun xodimlarni rag'batlantirish tizimlarini joriy etish.

Yuqorida keltirilgan tahlillardan xulosa qilib aytganda, tezkor-qidiruv faoliyati sohasida texnik vositalardan foydalanish bilan bog'liq huquqiy mexanizmlarni qayta ko'rib chiqish, huquqiy aniqlik va kafolatni ta'minlovchi aniq va mukammal normalarni ishlab chiqish, texnik vositalar qo'llanilayotgan holatlarda inson huquqlari va erkinliklarini himoya qilishga qaratilgan chora-tadbirlarni kuchaytirish zarur. Shuningdek, sohadagi huquqiy munosabatlar tizimini raqamli texnologiyalar rivoji bilan uyg'unlashtirish ham muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Абдурасулов Б.А. Ўзбекистонда жиноят-процессуал фаолиятда техник воситалардан фойдаланишнинг ҳуқуқий асослари. — Тошкент: Ўзбекистон давлат ҳуқуқ университети нашри, 2020. — 212 б.

2. Турсунов Н.Ж. Оператив-қидирув фаолиятида техник воситалардан фойдаланиш: назарий ва амалий жиҳатлар. — Тошкент: "Нуқуқ" нашриёти, 2019. — 195 б.

3. Абдурахмонов Ж.Ж. Жиноят ишларини терговда техник воситаларнинг ўрни ва аҳамияти. — Тошкент: Фан, 2021. — 230 б.

4. Назаров Ш.М. Жиноят ишларида техник воситалардан фойдаланишнинг ҳуқуқий ва амалий муаммолари. — Тошкент: "Илм-фан", 2018. — 180 б.

5. Ҳамдамов А.А. Тезкор-техник воситалардан фойдаланишнинг ҳуқуқий жиҳатлари // Ҳуқуқ ва бурч. – 2020. – №3. – Б. 45–52.

6. Каримов, В. (2024). "Тезкор-қидирув фаолияти тўғрисида"ги Қонунига илмий-амалий шарҳ. ProAcademy.

7. Бекмуродов, Н.Н. (2022). Тезкор-қидирув фаолиятини амалга оширишнинг ҳуқуқий асосларини такомиллаштириш масалалари. Евразийский журнал права, финансов и прикладных наук, 2(10), 165–169.

8. Машарипов, Т.Э. (2024). Текшириш учун харид қилиш ва назорат остида олиш тadbирларининг тушунчаси ва аҳамияти. Евразийский журнал права, финансов и прикладных наук, 4(1), 70–76.

9. Таштемиров, А. А. "Вояга етмаганлар ўртасида ҳуқуқбузарликлар профилактикаси бўйича ички ишлар органларининг ҳамкорлиги." O'zbekistonda fanlararo innovatsiyalar va ilmiy tadqiqotlar jurnali 2.25 (2023): 32-40.

10. Таштемиров, А. А. "Ҳуқуқбузарлик содир этилишининг сабаблари ва шароитларини аниқлаш ва бартараф этиш фаолиятини такомиллаштириш йўналишлари." So 'ngi ilmiy tadqiqotlar nazariyasi 6.12 (2023): 454-461.

11. Таштемиров, А., and X. Юлдошев. "Ҳуқуқбузарликлар профилактикасини амалга оширишда оммавий ахборот воситалари ва блогерлар билан ҳамкорликнинг ўзига хос жиҳатлари." Академические исследования в современной науке 3.17 (2024): 55-61.

12. Таштемиров, А. А. "Ахборот технологиялари орқали содир этиладиган жиноятларни фoш этишнинг ҳуқуқий ва ташкилий жиҳатлари." World of Science 6.6 (2023): 169-175.

13. Тоштемиров, А. "Киберфирибгарлик билан боғлиқ жиноятларнинг пайдо булиш ва ривожланиш тарихи." Общество и инновации 3 (2022): 11.

14. Таштемиров А. А., Комилов А. М. Ў. Одам савдоси жиноятига қарши курашишни такомиллаштиришга оид айрим мулоҳазалар //Central Asian Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies. – 2024. – Т. 1. – №. 7. – С. 135-138.